

UMUMIY PEDAGOGIKA FANINI O'QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI MUSIQA O'QITUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Allanazarova Dilobar Baxromovna

Fargona viloyat Qo'qon shaxar 7-bolalar musiqa va san'at maktabi

“O‘zbek xalq cholgulari” bo‘imi o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18738159>

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy pedagogika fanini o‘qitish jarayonida fanlararo integratsiya asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda integrativ yondashuvning nazariy asoslari, fanlararo aloqadorlikning pedagogik imkoniyatlari hamda kreativ tafakkurni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Tajriba-sinov natijalari fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning ijodiy fikrlash darajasini sezilarli oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: fanlararo integratsiya, kreativ tafakkur, musiqa ta‘limi, pedagogik texnologiya, kasbiy kompetensiya, metodika.

Аннотация: В статье рассматривается методика развития креативного мышления будущих учителей музыки на основе междисциплинарной интеграции при преподавании общей педагогики. Анализируются теоретические основы интегративного подхода и педагогические возможности межпредметных связей. Экспериментальные результаты подтверждают эффективность междисциплинарной интеграции в формировании творческого мышления студентов.

Ключевые слова: междисциплинарная интеграция, креативное мышление, музыкальное образование, педагогическая технология, компетентность.

Zamonaviy ta‘lim tizimida fanlararo integratsiya ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, musiqa ta‘limi sohasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish pedagogik jarayonning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Umumiy pedagogika fani kasbiy tayyorgarlikning nazariy poydevorini tashkil etadi. Mazkur fan mazmunini musiqa nazariyasi, psixologiya, san‘atshunoslik, estetika va metodika fanlari bilan integratsiyalash kreativ tafakkur shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘zbek milliy musiqasining ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Arxeologik topilmalardan ma‘lumki, miloddan avvalgi davrlarda yashagan ajdodlarimiz hayotida hammusiqqa muhim o‘rin tutgan. Zardushtiylik davridan boshlab marosimlarda, bayramlarda, jangovor yurishlarda musiqadan foydalanilgan. Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlari —Al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiyva boshqalar musiqaning inson ruhiyatiga ijobiy ta‘sirini alohida ta‘kidlaganlar. Forobiy -“Musiqqa ilmi” asarida musiqa nafaqat san‘at turi, balki inson tarbiyasining vositasi ekanini ilmiy asoslab bergan. Ibn Sino esa musiqani davo vositasi sifatida e‘tirof etgan. Milliy musiqaning janrlari va ularning tarbiyaviy xususiyatlari barchamizga ma‘lum. O‘zbek milliy musiqasi boy va rang-barang janrlarga ega. Ular orasida quyidagilarni alohida ta‘kidlash mumkin:

1)Maqomlar -o‘zbek musiqqa madaniyatining cho‘qqisi bo‘lib, u ruhiy poklanish, sabr-toqat, ichki uyg‘unlikni tarbiyalaydi.

2) **Laparlar** -xalqning shodlik, mehr-oqibat, muhabbat kabi his-tuyg‘ularini ifoda etadi. O‘zaro hurmat, sabr, sadoqat, halollik kabi fazilatlar asosiy mavzu bo‘ladi.

3) **Xalq qo‘shiqlari** –mehnatga, vatan, tabiat, oila va farzandga bo‘lgan muhabbatni targ‘ib qiladi.

4) **Marosim qo‘shiqlari** –xalq an‘analari va qadriyatlarini saqlash, yoshlarni urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ashula va raqs san‘ati ham o‘zbek xalqining ruhiy olamiga yaqin bo‘lib, unda axloqiy tarbiya elementlari mujassam. Har bir kuy, har bir ohang o‘ziga xos ma‘naviy yuklama bilan ifodalangan. Qolaversa, yoshlar musiqa orqali o‘z tarixini chuqur o‘rganadi, ajdodlar jasorati, o‘zligimiz va milliy g‘ururni his qiladi. Aynan shunday musiqalar orqali ular ona yurtga sadoqat, xalqiga xizmat qilish, yaxshi inson bo‘lish kabi tuyg‘ularni ongli ravishda singdirib oladi. Milliy musiqa ta‘lim-tarbiya tizimida ham muhim o‘rin tutgan, O‘zbekiston Respublikasining –Ta‘lim to‘g‘risidagi qonunida ham musiqiy tarbiya yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash vositasi sifatida e‘tirof etilgan.

Maktablarda, bolalar musiqa va san‘at maktablarida milliy kuy va ashulalar orqali o‘quvchilarning estetik didi, musiqiy saviyasi shakllanadi. Bundan tashqari, milliy musiqani o‘rgatish orqali ularning milliy madaniyatga bo‘lgan hurmati ortadi. Bugungi kunda barcha hududlarda faoliyat yuritayotgan maqom ansambllari, folklor guruhlari, musiqa maktablari, xalq cholg‘u ansambllari orqali yoshlar milliy musiqaga jalb qilinmoqda. Bu esa nafaqat iste‘dodlarni yuzaga chiqaradi, balki yoshlarni ma‘naviy yuksaltiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy musiqa - bu xalqning yuragi, uning ruhiyatining ifodasidir. U orqali insonlar qalbiga ezgulik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi muqaddas tuyg‘ular singdiriladi. Bugungi kunda milliy musiqani asrash, rivojlantirish va uni yoshlar tarbiyasida faol qo‘llash bizning eng muhim vazifamizdir. Chunki milliy musiqani sevgan, qadrlagan, uni yuragida his etgan yosh hech qachon begona g‘oyalarga ergashmaydi, balki o‘z xalqining sadoqatli farzandi bo‘lib yetishadi.

An‘anaviy musiqalarni ta‘lim jarayoniga integratsiyalash, ayniqsa oliy ta‘limda, talabalarda milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ma‘naviy ongni shakllantirishning samarali usuli hisoblanadi. Metodik yondashuvlar takomillashtirilganda, musiqaning tarbiyaviy imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. A. Qodirov -O‘z bek musiqa madaniyati||, Toshkent, 2004.
2. Forobiy, A.N. “Musiq ilmi”. Toshkent, 1996.
3. Ibn Sino “Tib qonunlari”. (Musiqiy davolash haqida boblar).
4. I. Karimov “Yuksak ma‘naviyat –yengilmas kuch”. Toshkent, 2008. 5.
5. M. Rasulov. “O‘zbek folklori va og‘zaki ijodiyoti”. Toshkent, 2015.
6. R. Yo‘ldoshev. “Musiq va tarbiya”. Toshkent, 2010.
7. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni.
8. O‘zbekiston xalq ijodiyoti namunalari to‘plami. 1-10 jildlar. Akadem nashr.